

## **INSTITUTNING MA'NAVIYAT VA MARIFAT ISHLARI**

### **INSTITUT MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT ISHLARI BO'YICHA PROREKTORI, TARIX FANLARI NOMZODI, DOTSENT P.X.ASXANOV**



1996- yil 16-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining "Oliy va o'rta

mahsus o'quv yurtlarida ma'naviy va ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'i e'lon qilindi. Shundan so'ng, institut rektorining 1997-yil 13 yanvar 12-Sh buyrug'iga asosan, avval tarbiyaviy ishlar bo'yicha prorektor lavozimida ishlab kelayotgan professor X.X.Shermatov ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor lavozimiga tayinlandi.

1997- 2002 yillarda ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha 1-prorektor lavozimida professor A.K.Kanmov, 2002-2004 yillarda professor AK.Shadmanov, 2004-2005-yillarda professor M.M.Yo'ldoshev, 2005-2006 yillarda X.T.Musashayxov, 2007-2017 yillarda professor M.M.Madazimovlar faoliyat yuritganlar.

2017-yil 1 apreldan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimiga ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti P.X.Asxanov tayinlandi .

Istitutda 1997-yili ma'naviyat va ma'rifat bo'limi tashkil etilib, dotsent K.Matyoqubov bo'lim boshlig'i, o'qituvchi M.Xaydarov uslubchi vazifasiga tayinlandi. 1997-yil 25-sentyabrdan boshlab I.Samadjonov bo'lim boshlig'i, o'zbek till va adabiyoti o'qituvchisi M.Axunova esa uslubchi lavozimida ish boshladilar. 1999-yil iyun oyidan A.Maxammetova bo'lim uslubchisi lavozimiga ishga qa'bul qilindi.

Bolimda turli davrlarda dotsent I.Sattiboev, M.Haydarov, D.Nazarova, A.Qo'ldoshev va Sh.Rasulovlar boshliq sifatida mehnat qildilar. 2017-yil fevral oyida A.Abduxalimov bo'lim boshlig'i lavozimiga tayinlangan.



Bugungi kunda “Ma’naviyat-ma’rifat” va iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo’limida A.Abduxalimov bo’lim boshlig’i, Oliy va o’rta mahsus ta’lim Vazirligining 2017-yil 23-avgustdagi 600-sonli buyrug’iga asosan, ”institut psixologi” lavozimi tashkil etilib, ushbu lavozimga O .Arziqulov tayinlangan. A.Maxammetova va K.Usmonovalar uslubchi hamda Sh.Sattarova kotiba ish yurituvchi sifatida talaba-yoshlarni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruxida tarbiyalashda fidoiylilik bilan mehnat qilmoqdalar.

**Ma’naviy-ma’rifiy ishlar quyidagi yo’nalishlarda ishlar olib bormoqda:**



## Harakatlar strategiyasi honasida:



Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining rasmiy hujjatlarini tushuntirish;

G'oyaviy-mafkuraviy yo'nalishda:

Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda;

Diniy ekstremizm, fundamentalizm va unga qarshi kurash yo'nalishida;

“Ma'naviyat soati”, “Ma'naviyat kuni”, “Kafedra kuni” mashg'ulotlarini va tadbirlarini otkazish yo'nalishida;

Jinoyatchilik, huquqbuzarlik va unga qarshi kurashish yo'nalishida;

Giyohvandlik va OITS ga qarshi kurash yo'nalishida;

Psixoprofilaktik ishlar yonalishida;

Murabbiylar faoliyatim tashkil etish yo'nalishida;

- Ijarada yashovchi talabalar o'rtasida ish tashkil etish yo'nalishida;
- Jamoat tashkilotlari faoliyatini tashkil etish yo'nalishida.

O'tgan davr mobaynida ma'naviy-ma'rifiy jabhada bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, o'tkazilayotgan “Ma'naviyat soati”, “Ma'naviyat kuni” mashg'ulotlari, “Kafedra kuni” tadbirlarining sifati va samaradorligini oshirishga erishildi. Eng avvalo tadbirlarni o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan professor-o'qituvchilarning saviyasini oshirishga e'tibor qaratildi. Institutda ular uchun alohida “Ma'naviyat soati” mashg'ulotlari o'tkazish uchun maxsus o'quv seminari tashkil etildi.

Tadbirlar mazmunini boyitish maqsadida mutaxassis olimlar, taniqli shoir va yozuvchilar, deputatlar, jamoat tashkilotlari, ichki ishlar tizimi vakillarining ishtiroki ta'minlandi.

Institutda 4 ta xalqaro, 7 ta Respublika va 7 ta viloyat miqyosida hamda 8 ta institut miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etildi. Targ'ibot jarayonida ko'rgazmali

namoyishga e'tibor kuchaytirildi. 2007-2017 o'quv yillari davomida "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", "Xalqaro terrorizm-XXI asr muammosi", "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida ularni bartaraf etishning yo'llari va choralari", "Barkamol avlod-buyuk kelajagimiz poydevori", "Prezident-davlat va millat tayanchi" singari mavzularda maxsus multimedia dasturlari yaratildi.

Institutda jismomy tarbiya va sportning ommaviyligi ta'minlandi. Mavjud 16 ta sport to'garaklari tasdiqlangan jadval asosida faoliyat ko'rsatmoqda. Buning natijasida institutning sportchi talabalari Andijon shahrida o'tkazilgan "Universiada - 2010", 2013 yil Buxoro shahrida o'tkazilgan "Universiada-2013" sport musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishib, faxrli 2-3-sovrinli o'rinlarni egalladilar.

2013-yilda O'zbekiston kubogi uchun o'tkazilgan musobaqalarda institutimiz voleybolchi qizlari faxrli 3-o'rinni egallagan bo'lsalar, 2014-yilda Oliy Liga musobaqalarida mazkur guruh qizlari 3-o'rinni qo'lga kiritdilar. 2012-2013 yillarda "Andijon bahori" mavzusida o'tkazilgan musobaqalarda futbolchi qizlarimiz faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdilar. 2014-yil yoshlar o'rtasida sportning taekvando turi bo'yicha Respublika musobaqasida Kamola Alieva 2-o'rinni, sportning sambo turi bo'yicha Sarvmoz Boltaboeva o'z vazni bo'yicha faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdilar. 2010-yildan buyon kurs va kafedralar professor-o'qituvchilari hamda talabalar o'rtasida sportning minifutbol, voleybol va basketbol turlari bo'yicha musobaqalarning belgilangan jadval asosida muntazam o'tkazib borilishi ta'minlandi. Mazkur musobaqalarni tashkil etish hamda g'oliblarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda institutda faoliyat ko'rsatayotgan "Buqrot" sport klubining tashkilotchiligi ancha ortdi. Shu yillar davomida "Buqrot" sport klubining a'zolari soni 820 nafar bo'lib, ulardan 223 nafarini qizlar tashkil etadi.

Institut talabalari 2007-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidagi Davlat stipendiyasi sovrindori bo'lib kelmoqda. Jumladan, 2010 -2012 yillarda bakalavriat yo'nalishida M.Zoxidov, Ya.Ziryaev, U.G'anievalar sovrindorlikni qo'lga kiritgan bo'lsalar, 2013-yilda bakalavriat yo'nalishida pediatriya fakulteti 7-bosqich talabasi A.Adashaliev, magistratura yo'nalishida Z.Ulmasov, 2014-yilda magistratura yo'nalishida Ya.Ziryaev, bakalavriat yo'nalishida Sh.Raximberdiev, 2016-yilda esa pediatriya fakultetining 7-bosqich talabasi A.Uzoqov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasiga sazovor bo'ldilar.

2012-yil davolash fakulteti 6-bosqich talabasi K.Madazimov, 2013-yil pediatriya fakulteti 7-bosqich talabasi G.Boltaboeva, 2016-yil davolash fakulteti 7-bosqich talabasi A.Nundimovlar Ibn Sino nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo'ldilar.

2016-yilda davolash fakultetining 7-bosqich talabasi S.Qurbonova O'zbekiston Vrachlar assotsiatsiyasi stipendiyasini qo'lga kiritdi.

2016 -yilda pediatriya fakulteti 3-bosqich talabasi M.Ibragimova, stomatologiya fakulteti 4-bosqich talabasi R.Rustamova, kasbiy ta'lim yo'nalishi 5-bosqich talabasi F.O'rmonov, pediatriya fakulteti 6-bosqich talabasi Sh.Axmadaliev, davolash fakulteti 5-bosqich talabasi A.Rustamovlar O'zbekiston "Kamolot" YOIH tomonidan ta'sis etilgan "Kamolot" stipendiyasi sovrindori bo'ldilar.

2017 -yilda Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkazilgan Respublika fan olimpiadasida institut talabalari "Mikrobiologiya" fani bo'yicha 1-o'rm, "Normal fiziologiya" fani bo'yicha 2-o'rin, "Patologik fiziologiya" fani bo'yicha 2-o'rin, "Jarrohlik" fani bo'yicha 3-o'rin, "Nevrologiya" fani bo'yicha 3-o'rinni qo'lga kiritdilar.

2010-2011 yillarda "Eng namunali talabalar turar joyi" nominatsiyasi bo'yicha o'tkazilgan tanlovning viloyat bosqichida institut talabalar turar joyi "Eng namunali" deb topildi hamda tanlov tashkilotchisi bo'lmish "Kamolot" YOIH viloyat kengashining qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi. "Kamolot" YOIH BT etakchisi D.Yakubov "Eng namunali boshlang'ich tashkilot" nominatsiyasi bo'yicha o'tkazilgan tanlovning Respublika bosqichida mutloq g'oliblikni qo'lga kiritdi, 2013-yilda D.Yakubovga "Kamolot" YOIH markaziy kengashi tomonidan ta'sis etilgan "O'zbekiston Belgisi" ko'krak nishoni berildi. Institut talabalar jamoasi "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritib, Respublika bosqichiga yo'llanma oldilar. 2014 va 2016-yillarda "Eng faol xotin-qizlar qo'mitasi" tanlovining Respublika bosqichida institut xotin-qizlar qo'mitasi raisi M.A.Jo'raeva fahrli 1-o'rinni egalladi.

Iqtidorli talabalardan tashkil topgan "Shifokor" badiiy jamoasi, "Bal" raqs guruhi va "Shifokor" teatr studiyasi samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Davolash fakulteti 3-bosqich talabasi M.Noralieva "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti viloyat bosqichida faol ishtirok etib g'oliblikni qo'lga kiritdi va Respublika bosqichiga yo'llanma oldi. Kasbiy ta'lim fakulteti 6-bosqich talabalari X.Ataxodjaev va K.Qayumovlar 2013-yilda "Kamolot" YOIH Markaziy kengashi tashabbusi bilan "Yurt kelajagi" mavzusida o'tkazilgan tanlovning "Ratsionalizatorlik va texnik ishlanmalar" yo'nalishi bo'yicha ishtirok etib fahrli 1-o'rinni qo'lga kiritdilar.

2014-yil pediatriya fakulteti 5-bosqich talabasi A.Uzoqov Samarqand davlat tibbiyot institutida o'tkazilgan "Tibbiyot instituti talabalarining xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi"da o'z ma'ruzasi bilan qatnashib, faxrli 1-o'rinni egalladi. 2014 yil noyabr oyida Buxoro shahrida o'tkazilgan "Abu Ali ibn Sino ilmiy- amaliy merosi bashariyat uchun bebaho xazina" deb nomlangan ilmiy anjumanda qatnashib, faxrli birinchi o'rinni egalladi. 2014-yilning 20-21 noyabr kunlari Buxoroda o'tkazilgan "XXI asr - intellektual avlod asri" shiori ostidagi konferensiyasining Respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritib diplom va sertifikat bilan taqdirlandi. 2015-yil fevral oyida esa Moskva shahrida reanimatsiya va anesteziologiya mutahassisligi bo'yicha L.M.Sechenov nomli birinchi Moskva davlat meditsina umversitetida grant asosida malaka oshirib keldi. 2015-yil "Kamolot" YOIH tomondan ta'sis etilgan "Kamolot" stipendiyasi sovrindori bo'ldi. 2015-yilning 9-16 avgust kunlari Qashqadaryo viloyatida bo'lib o'tgan "Yurt kelajagi - 2015" iqtidorli yoshlar ko'rik tanlovining Respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritib diplom va sertifikat bilan taqdirlandi. 2015-yil oktyabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning dolzarb masalalari" II - Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida "O'zbekistonda yoshlar siyosati: bugungi holati va istiqbollari" shobasida qatnashib faxrli birinchi o'rin sovrindori bo'ldi.

2016-yilda Normal va patologik fiziologiya kafedrasida professori Sk.Qodirov

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

2016-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor M.M.Madazimov O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

2016-yilda Jarrohlik va urologiya kafedrasida professori F.N.Nishonov "Shifokorlar kuni" munosabati bilan "Uzoq yillar samarali mehnati va yosh avlodni tarbiyalashdagi qo'shgan hissasi uchun" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining fahriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

2016-yilda Anatomiya, operativ jarrohlik va topografik anatomiya kafedrasida professori I.Qosimxodjayev "Uzoq yillar samarali mehnati va yosh avlodni tarbiyalashdagi qo'shgan hissasi uchun" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining fahriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

2016-yilda Bolalar kasalliklari propedevtikasi va pediatriya kafedrasida mudiri, A.G'.Arzibekov "Uzoq yillar samarali mehnati va yosh avlodni tarbiyalashdagi qo'shgan hissasi uchun" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Fahriy yorlig'i bilan taqdirlandi.